

**MasterCard bank kartasiga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida  
ShARTNOMA**

20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

No\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankingin \_\_\_\_\_ filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va jismoniy shaxs \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda – Mijoz), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

**1-§. Shartnoma predmeti**

1. Mijoz tomonidan MasterCard bank kartasi vositasida bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat va sotib olingan tovar uchun xalqaro to‘lovni amalga oshirish, naqd pul mablag‘ini olish, valyuta ayrboshlash va Bank tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarga xizmat ko‘rsatish jarayonidagi Bank va Mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.

2. MasterCard bank kartasi Mijozga savdo va servis xizmati ko‘rsatish joylarida bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat va sotib olingan tovar uchun to‘lovni amalga oshirish, naqd pul mablag‘ini olish, valyuta ayrboshlash va Bank tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi.

3. MasterCard bank kartasi Mijoz tomonidan MasterCard bank kartasi ochish uchun ariza to‘ldirilgan va Bank tarifiga muvofiq MasterCard bank kartasidan foydalanish uchun dastlabki badal to‘langandan so‘ng muomalaga chiqariladi.

4. MasterCard bank kartasi Bank mulki hisoblanadi, u amal qilish muddati tugagandan so‘ng yoki almashtirilganda yoxud Bank talabi bo‘yicha Bankka qaytarilishi lozim.

**2-§. Tomonlar huquqi va majburiyatları**

**5. Bank quyidagi huquqlarga ega:**

a) Mijoz tomondan ushbu Shartnoma va MasterCard bank kartasidan foydalanish qoidalari buzilganda MasterCard bank kartasining amal qilishini to‘xtatish;

b) O‘zbekiston Respublikasi qonuni hujjatlarida hamda “MasterCard” xalqaro to‘lov tizimi qoidalari belgilangan holatlarda MasterCard bank kartasining amal qilishini to‘xtatish;

v) Mijoz tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilganda Bankka yetkazilgan zararni undirish;

g) MasterCard bank kartasidan foydalanishga oid Bank tariflariga, shuningdek sug‘urta depoziti miqdoriga qo‘srimcha va/yoki o‘zgartirishlar, ular kuchga kiritilishidan kamida o‘n kun oldin bu haqda tegishli axborotni, shuningdek ushbu Shartnoma yuzasidan qo‘srimcha bitim loyihasini www.trustbank.uz veb-sayti va Bank filiali binosidagi e’lonlar stendiga joylashtirish, shuningdek Mijozga shaxsan topshirish, pochta orqali jo‘natish, elektron pochtadan jo‘natish, mobil telefoniga SMS yuborish, mobil telefoniga telegram kanali vositasida yetkazish orqali Mijozni ogohlantirib, kiritish. Agar ushbu qo‘srimcha va/yoki o‘zgartirishlar kuchga kiritiladigan sanagacha Mijoz tomonidan imzolangan qo‘srimcha bitim yoki uni imzolashdan bosh tortganligi haqida yozma xabar Bankka taqdim qilinmasa, bu hol O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq Bank tariflariga kiritilayotgan qo‘srimchalar va/yoki o‘zgartirishlarga Mijozning to‘la roziliginibildiradi;

d) “Mobile banking” xizmati uchun har oyda komissiya to‘lovini Mijoz hisobvarag‘idan akseptsiz tarzda undirish;

ye) MasterCard bank kartasi yopilgunga qadar yillik abonent to‘lovini undirib borish.

**6. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:**

a) Mijozga, u tomonidan MasterCard bank kartasi ochish uchun ariza berilgandan so‘ng, MasterCard bank kartasini ochish;

b) Mijozga uning talabi bo‘yicha MasterCard bank kartasi balansining holatiga oid

ma'lumotni taqdim qilish;

v) Mijozning MasterCard bank kartasiga mablag' o'tkazilgan paytdan boshlab bir bank ish kuni ichida MasterCard bank kartasi balansini to'ldirishni amalga oshirish;

g) Mijozga MasterCard bank kartasidan foydalanishga oid Bank tariflari va sug'urta depoziti miqdorining o'zgartirilishi haqida ushbu Sharhnomalar 5-bandining "g" kichik bandida belgilangan tartibda xabar berish;

d) Mijozning MasterCard bank kartasi bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda (ushbu bank kartasidan foydalanayotgan paytda PIN-kod noto'g'ri terilishi oqibatida blokirovkaga tushgan holat bundan mustasno), amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Mijozga uning MasterCard bank kartasi hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sababi yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish;

ye) Mijozning kredit bo'yicha qarzdorligini so'ndirish uchun uning MasterCard bank kartasi hisobvarag'idan mablag' Bank tomonidan Mijozning topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Mijozga uning MasterCard bank kartasi hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sababga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish;

yo) Mijozga MasterCard bank kartasi yo'qotilganligi va (yoki) undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida xabarnomani Bankning mobil-ilovasi orqali tunu-kun yuborish imkoniyatini ta'minlash;

j) Mijozdan MasterCard bank kartasi yo'qotilganligi va (yoki) undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida xabarnoma olingandan so'ng bank kartasini darhol blokirovka qilish.

#### **7. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

a) MasterCard bank kartasiga mablag' o'z vaqtida kirim qilinishini talab qilish;

b) MasterCard bank kartasini o'zi yoki o'zi vakolat bergen shaxs tomonidan to'ldirish;

v) MasterCard bank kartasi muddati tugagach uni qayta emissiya qilishga ariza berish;

g) qo'shimcha MasterCard bank kartasi chiqarish uchun ariza berish;

d) MasterCard bank kartasining balansi to'g'risida ma'lumotni olish (Mijoz telefon orqali murojaat qilganda "so'zlashuv paroli"ni aytishi lozim);

ye) MasterCard bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilgan taqdirda Bankka bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi natijasida yo'qotilgan pul mablag'i bo'yicha tekshirish o'tkazish va boshqa choralarни ko'rish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish.

#### **8. Mijoz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:**

a) MasterCard bank kartasini olgandan so'ng uning PIN-kodini o'zgartirish va o'z PIN-kodini begona shaxslarga oshkor etmaslik;

b) Bank tariflari asosida MasterCard bank kartasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha Bankning barcha xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirish;

v) MasterCard bank kartasi qoldig'ida qarzdorlik vujudga kelishini oldini olish;

g) MasterCard bank kartasi koldig'ida qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda 10 (o'n) bank ish kuni davomida qarzdorlikni qoplash;

d) MasterCard bank kartasi yo'qotilganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti aniqlanganda zudlik bilan Bankka xabarnoma yuborish (Mijoz telefon orqali murojaat qilganda "so'zlashuv paroli"ni aytishi lozim).

### **3-§. Tomonlar javobgarligi**

9. Bank MasterCard bank kartasi yo'qotilganligi va (yoki) undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida Mijozdan xabarnoma olingandan keyin ushbu bank kartasidan ruxsatsiz foydalanganlik uchun javobgar bo'ladi.

10. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:

a) Mijozdan ijozat olmay uchinchi shaxs tomonidan PIN-kod orqali MasterCard bank kartasi ishlataliganligi uchun;

b) Bankning nazorat vakolati doirasidan tashqari bo‘lgan boshqa banklar tomonidan MasterCard bank kartasi qabul qilinmaganda.

11. Mijoz quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

a) MasterCard bank kartasi yo‘qotilgan yoki undan ruxsatsiz foydalanilgan bo‘lsa, Mijoz bu haqida Bankka xabarnoma yuborilgunga qadar o‘tkazilgan barcha tranzaksiyalar bo‘yicha;

b) MasterCard bank kartasi yo‘qotilganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risida Bank xabardor qilinmagan taqdirda, sodir bo‘ladigan barcha tavakkalchiliklar bo‘yicha;

v) Bankka taqdim etilayotgan barcha ma’lumotlarning haqiqiyligi bo‘yicha.

#### **4-§. Alovida shartlar**

12. Mazkur Shartnoma 6-bandining “d” va “e” kichik bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar Mijoza

*(Mijoz tegishlisini tanlaydi: shaxsan topshirish, pochta orqali jo‘natish, elektron pochtadan jo‘natish, mobil telefoniga SMS yuborish, mobil telefoniga telegram kanali orqali jo‘natish)* orqali topshiriladi.

Mijoz xabarnoma (ma’lumotnoma) yetkazish usulini Bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo‘li bilan o‘zgartirish huquqiga ega. Bunda Mijozen qabul qilingan ariza Bank tomonidan uning MasterCard bank kartasi bo‘yicha yig‘majildida saqlanadi. Xabarnomani (ma’lumotnomani) Mijoza yetkazish usuli o‘zgaganligi munosabati bilan mazkur Shartnomaga o‘zgartirish kiritish talab etilmaydi.

13. Mazkur Shartnoma 3 (uch) yillik davrga tuzildi. Agar ushbu muddat tugashidan eng kamida bir oy oldin tomonlardan biri mazkur Shartnomani bekor qilingan to‘g‘risida yozma tarzda xabar bermagan bo‘lsa, uning muddati keyingi davrga uzaytirilgan hisoblanadi.

14. Shartnoma uni tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

15. Shartnoma bekor qilinganda Mijoz MasterCard bank kartasini Bankka qaytarib berishi shart.

#### **5-§. Shartnomaga qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritish**

16. Shartnomaga kiritiladigan barcha qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar tomonlar o‘rtasida yozma ravishda kelishilgan bo‘lishi lozim, ushbu Shartnoma 5-bandining “g” kichik bandida nazarda tutilgan qo‘sishimcha va/yoki o‘zgartirishlar bundan mustasno.

#### **6-§. Shartnomani bekor qilingan**

17. Tomonlar ushbu Shartnomani, bir-birlariga bir oy oldin yozma xabar bergan holda, bekor qilingan mumkin.

18. Shartnoma Mijozen tashabbusiga ko‘ra bekor qilingandan keyin MasterCard bank kartasi Bankka qaytarilmasa, o‘tkazilgan barcha tranzaksiyalar bo‘yicha Mijoz to‘liq javobgar hisoblanadi.

19. Shartnoma bekor qilinganda Bank Mijozen MasterCard bank kartasini yopadi, undagi mablag‘ qoldig‘ini Mijozen arizasiga ko‘ra naqd pulda beradi.

#### **7-§. Nizolarni hal qilingan**

20. Barcha kelishmovchilik va nizolarni tomonlar muzokara yo‘li bilan hal etadi. Muzokara natijasida tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibida hal qilinadi.

#### **8-§. Yakuniy qoidalar**

21. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nus’hada tuzildi, uning bir nus’hasi Bankda, ikkinchi nus’hasi Mijoza saqlanadi.

22. Shartnomaga muvofiq tarzda yoki unga bog‘liq holda yuborilgan xabarnomalar tomonlarning quyida ko‘rsatilgan manzillari bo‘yicha yuborilgan yoki shaxsan yetkazilgan

yoxud Bankning mobil-ilovasi orqali yuborilgan hamda ularni olganlik to‘g‘risida tasdiqnomalar mavjud bo‘lsa, ular belgilangan tartibda taqdim etilgan hisoblanadi.

23. Sharhnomalar bilan belgilanmagan barcha holatlarda tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tarzda ish olib boradi.

### **9-§. Tomonlar manzili, rekviziti va imzolari**

Bank:	Mijoz:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: (+99878)140-00-88 Faks: _____	Telefon: _____
Bank kodi: _____	Pasport, seriya ____ № _____
Bank hisobvarag‘i: _____	Qachon va kim tomonidan berilgan _____
STIR: _____	(imzo)
Boshqaruvchi: _____	
Yurist: _____	
Muhr o‘rni	